YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING MUAMMOLARI VA USTUVOR YO ‘NALISHLARI

Safiyeva Nigora Nurmuxamadovna
Guliston davlat universiteti, PhD.,v.b. dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.17287518

Annotatsiya. *Jahonda jami yer maydonining 38 foizidan ortig‘i qishloq xo‘jaligida foydalanilmoqda. Bu yerlar asosan ekin ekish va chorvachilik uchun ishlatiladi. Dunyo bo‘ylab qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yerlarning umumiy maydoni 4,89 milliard gektarni tashkil etadi. Shundan 36% ekin maydonlari, qolgan 64% esa yaylov va chorvachilik uchun foydalaniladi. Aholi sonining ko‘payishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash ehtiyojining ortib borishi bilan yer resurslarini samarali boshqarish muhim masalaga aylanib bormoqda. Shu sababli, ko‘pgina davlatlar qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va uning unumdorligini oshirishga katta e’tibor qaratmoqda.Shu boisdan ushbu maqolada yer resurslaridan samarali foydalanishning ba’zi muammolari va yerdan samarasiz foydalanishning oldini olish masalalariga yechimlarni ushbu maqolada yoritishga harakat qildik.[1]*

Kalit so‘zlar: *yer resurslari, qishloq xo‘jaligi yerlari, yer toifalari, yer degradatsiyasi, yerdan tizimli foydalanish.*

Аннотация. *Более 38 процентов от общей площади земель в мире используется в сельском хозяйстве. Эти земли используются в основном для выращивания сельскохозяйственных культур и животноводства. Общая площадь земель, используемых в сельском хозяйстве во всем мире, составляет 4,89 миллиарда гектаров. Из них 36% - посевные площади, а остальные 64% используются для пастбищ и животноводства. С ростом населения и растущей потребностью в продовольственной безопасности эффективное управление земельными ресурсами становится все более важным вопросом. Поэтому многие страны уделяют большое внимание модернизации сельского хозяйства и повышению его производительности. Поэтому в данной статье мы постарались осветить некоторые проблемы эффективного использования земельных ресурсов и пути решения вопросов предотвращения неэффективного использования земель.[1]*

Ключевые слова: *земельные ресурсы, сельскохозяйственные земли, категории земель, деградация земель, системное использование земель.*

Abstract. *More than 38 percent of the world's total land area is used in agriculture. These lands are mainly used for crop cultivation and animal husbandry. The total area of agricultural land worldwide is 4.89 billion hectares. Of these, 36% are arable land, and the remaining 64% are used for pastures and livestock. With the growth of the population and the growing need to ensure food security, the effective management of land resources is becoming an important issue. For this reason, many countries are paying great attention to the modernization of agriculture and increasing its productivity. Therefore, in this article, we tried to highlight some problems of efficient use of land resources and solutions to prevent inefficient land use.[1]*

Keywords: *land resources, agricultural lands, land categories, land degradation, systemic land use.*

Prognozlar shuni ko‘rsatadiki, 2050-yilga kelib dunyo aholisi 9,8 milliard kishiga, 2100-yilga borib esa 11,2 milliard kishiga yetishi taxmin qilinmoqdadir. Bu esa o‘z navbatida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Cheklangan tabiiy resurslar sharoitida yetarli darajada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va kafolatlash uchun qishloq xo‘jaligining imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror va tez sur’atlarda o‘sishiga ko‘maklashish, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini oshirish va ushbu tarmoqqa tegishli bo‘lgan barcha sohalarni himoya qilish juda muhimdir.Yer resurslarining kamyobligi jiddiy global muammo bo‘lib, uning oldini olish uchun har bir kishi va jamiyat o‘z hissasini qo‘shishi zarur. Innovatsion texnologiyalar va samarali boshqaruv orqali biz tabiiy resurslardan yanada oqilona foydalanishimiz va kelajak avlodga barqaror muhitni qoldirishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Qishloq xo‘jaligida yer resurslari va ulardan foydalanish tizimi hamda modernizatsiya qilishni takomillashtirish borasida mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda bir qator agrar-iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda yer bozorining shakllanishi metodologiyasi, uning amal qilishi muammolariga, shuningdek uni tartiblash mexanizm va uslublarini tadqiq etishga katta e’tibor berilgan. Yer munosabatlari, ayniqsa yer bozori munosabatlari muammolarining ko‘proq ishlanganligi F.Kene, U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, A.Marshall, Dj.S.Mill kabi klassik siyosiy iqtisod namoyondalari asarlarida kuzatiladi. Yer resurslaridan foydalanish tizimi bilan bog‘liq yerlarni baholash, hisobga olish, ularning huquqiy va tashkiliy shakllarini belgilash, ro‘yxatga olish, yer tuzish, yerlardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi kabi masalalari MDH mamlakatlarining bir qator olimlari jumladan, E.Meshaninova, D.Novikov, I.Degtyarev, M.A. Gendelman, K.Papenov, I.V. Popovich, K.Tixonova, V.Gerasimovich, A.A.Golub va boshqalar tomonidan o‘rganilgan [2]

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilishni rivojlantirish, eng avvalo, tarmoqda yerdan foydalanuvchilar bo‘lgan fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish bilan bog‘liq muammolar, qishloq xo‘jaligini tezkor rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligining tobora chuqurlashishi, qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali va oqilona foydalanishni rivojlantirish hozirgi kundagi dolzarb masala bo‘lganligi bois, ushbu masala tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiy, o‘zaro qiyoslash, konstruktiv-hisoblash, monografik, ekspert baholash, amaliy statistik tahlil, ekonometrik va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Natija va muhokamalar.

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish nazoratsiz bo‘lishi mumkin emas, u O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi bilan tartibga solinadi. Aynan o‘sha yerda bular qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladigan va ayni paytda aholi punktlari chegarasidan tashqarida joylashgan yerlar ekanligi ko‘rsatilgan. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi yerlarining alohida ahamiyati bo‘lganligi sababli ushbu turdagi yer resurslariga alohida muhofaza shakli qo‘llaniladi. Yer resurslaridan foydalanishda ularning o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqqan holda yondashuv talab etiladi. Avvalambor, yer resurslaridan foydalanish darajasini aniqlashda asosiy e’tibor, birinchidan, yerlardan foydalanish maqsadiga ko‘ra ularni qaysi toifaga kirishini aniq belgilab olish, ikkinchidan, amaliyotda qo‘llanilayotgan toifalardan kelib chiqqan holda har bir toifadagi yerlarning holati, dinamikasi va foydalanish darajasi tahlilini amalga

oshirish va nihoyat, uchinchidan, mavjud muammo, kamchilik hamda nomutanosibliklarni aniqlash zarur.

O‘zbekiston yer fondi 44,8 mln. gektarga teng bo‘lib 8 toifaga bo‘linadi. Shundan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar 26 132,2 ming gektarni tashkil etib, uning 4226,2 ming gektari sug‘oriladigan yerlardir (1-jadvalga qarang). Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki mamlakatimizdagi umumiy yer fondining mavjud toifalari bo‘yicha salmoqli qismi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar egallagan bo‘lib jami yerlarning 58,21 foizi to‘g‘ri keladi, eng kam qismi mos ravishda tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar - 0,03%, aholi punktlarining yerlari - 0,51% va sanoat, transport, aloqa, mudofaa - 1,74% yerlari va suv fondi yerlariga - 1,84% to‘g‘ri kelmoqda.

Respublikada qishloq xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlarining soni fermer xo‘jaliklari bilan birgalikda olganda, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 787.808 ta bo‘lib, ularga biriktirib berilgan yerlarning umumiy yer maydoni 26.132,2 ming gektarni, shu jumladan qishloq xo‘jalik yer turlari maydoni 21 206,5 ming gektarni, shundan 3701,0 ming gektari sug‘oriladigan yerlarni tashkil qiladi va uni biz quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin. Jadvalda keltirilishicha qishloq xo‘jaligining asosiy foydalanuvchi qismi sug‘oriladigan yerlar va uning kam miqdorda ekanligidadir.

O‘zbekiston Respublikasi hududining 58,21 foizini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar egallagan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda asosiy vosita hisoblanadi. Respublika hududida qishloq xo‘jaligi maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarning taqsimlanishi tabiiy iqlim omillariga binoan belgilanadi.

O‘zbekistonda sug‘orma dehqonchilik yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, yer resurslaridan foydalanish darajasi aksariyat jihatdan undan samarali foydalanishga bog‘liqdir. Sug‘oriladigan yerlar tuproq sharoiti, mexanik tarkibi, sho‘rlanish darajasi, gipslanganligi, toshloqliligi, eroziyaga uchraganligi va boshqa sharoitlari bo‘yicha farqlanadi. Tog‘ oldi (adir) mintaqalaridagi yuqori qism yerlari umumiy sug‘oriladigan yerlarning 43,0% ni, cho‘l mintaqalari tekislik yerlari esa 57,0% ni egallagan(1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (01.01.2024 holatiga, ming ga hisobida)[1]

T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydon		Shu jumladan, sug‘oriladigan yerlar	
		Jami	Foiz hisobida	Jami	Foiz Hisobida
1.	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar	26 132,2	58,21	4 226,2	9,41

[1] O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan. https://kadastr.uz/uz/etirof-etish-reja-jadvali

2.	Aholi punktlarining yerlari	226,7	0,51	50,9	0,11
3.	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan	786,9	1,75	12,6	0,03
4.	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	3 223,3	7,18	0,9	0,002
5.	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik	15,0	0,03		
6.	O'rmon fondi yerlari	12 092,5	26,94	45,4	0,10
7.	Suv fondi yerlari	827,3	1,84	4,6	0,01
8.	Zahira yerlar	1 588,5	3,54	1,9	0,004
	Jami yerlar:	**44 892,4**	**100,0**	**4 342,5**	**9,67**


Qishloq xo'jaligida yerlardan foydalanish tizimi holati va uning unumdorligini oshirish borasida qilinayotgan chora-tadbirlarning amaldagi holatini aniqlash maqsadida hamda hudud yer resurslarining sifat ko'rsatkichlari bir muncha past ekanligi, mavjud qishloq xo'jaligi yerlaridan optimal foydalanmaslik holatlari kuzatilayotganligi boisdan, Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanida fermer xo'jaliklari o'rtasida so'rovnoma o'tkazdik.

O'tkazilgan ijtimoiy so'rovda 50 nafar respondentlar ishtirok etgan bo'lib, uning natijalariga ko'ra, respondentlarning 48 foizi tegishli agronomik bilimlarga ega emasligi, tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha respondentlarning 66 foiziga ko'mak berilishi kerakligini, 54 foizi yer maydoni o'lchamining ishlab chiqarish natijalariga ta'siri bor ekanligini ta'kidlashgan. Respondetlarning javoblari, hududning yer resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki hududda tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va texno-ekologik chora tadbirlarni keng tadbiq etish hamda chora-tadbirlarni takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi.

4-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki mamlakatimiz ma'muriy-hududiy bo'linmalari kesimida 2024-yil 1-yanvar holatiga sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarning 12,67% Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12,34% Qashqadaryo viloyati, 8,34% Samarqanda viloyati va 8,10% Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelib mazkur viloyatlarda mamlakatimizdagi qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlarning salmoqli qismi joylashgan. Sirdaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich atiga 7% foiznni tashkil etadi. Hozirda viloyatning umumiy yer maydoni 371,2 ming gektarni tashkil etib,u ning 280,3 ming gektari sug'orildigan yerlardir.

Yuqoridagilarni inobatga olib, yer resurslaridan foydalanish tizimini takomillashtirish – bu yerlarning unumdorligini oshirish, ularni qayta tiklash, himoya qilish va samarali foydalanishni ta'minlash uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu chora-tadbirlar turli sohalarni qamrab olgan, jumladan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va texno-ekologik yondashuvlardan iboratdir. Qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanishning **ekspluatatsiya samaradorligini,** mavjud yer resurslarini ularning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlariga mos ravishda maksimal darajada maqsadga muvofiq va oqilona ishlatish orqali yuqori hosildorlik, iqtisodiy foyda va barqaror ekotizimga erishish tushuniladi. Qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanishni ta'minlashning institutsional mexanizmi keltirilgan, u to'rt asosiy yo'nalishda yoritilgan: agrotexnik samaradorlik, bu yo'nalish yerning agronomik holatini yaxshilash va hosildorlikni doimiy saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi, yer unumdorligini saqlash yoki oshirish – yerning tabiiy quvvatini yo'qotmasdan, undan uzoq muddatli va barqaror foydalana olish tushuniladi(1-rasmga qarang).

Almashlab ekish tizimi bir yerda bir necha yil davomida bir xil ekin turini ekish emas, balki almashinuv asosida joylashtirish orqali tuproq resurslarini muvozanatli ishlatish. Zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash – mexanizatsiyalashgan ishlov berish, suvni tejovchi texnologiyalar va raqamli monitoring kabi zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash.



1-rasm. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishni ta’minlash mexanizmi[2]

Iqtisodiy samaradorlik, bu yer resurslaridan iqtisodiy foyda olish imkoniyatlarini ko‘rsatadi, sof daromad hajmi – bir gektardan olinadigan aniq foyda. hosil va sarf-harajatlar nisbati – har bir investitsiya birligi qancha foyda keltirayotganini aniqlovchi ko‘rsatkichdir. Yerning bozor qiymati va foydalilik darajasi – yerning iqtisodiy aktiv sifatidagi bahosi va undan olinayotgan iqtisodiy samaradorlik darajasi tushuniladi.

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishni ta’minlashda **davlat-xususiy sheriklik (DXSh)** asosidagi iqtisodiy mexanizmlar juda muhim hisoblanadi. Bu mexanizmlar davlatning strategik yo‘nalishdagi yordami va xususiy sektorning innovatsion, texnologik hamda mablag‘ salohiyatini birlashtirishga qaratilgan. Taklif etilayotgan iqtisodiy mexanizmda**,“Agro-infratuzilma va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlovchi DXSh modellari” ni qo‘llash, yerni melioratsiya va sug‘orish tizimlarini DXSh asosida modernizatsiya qilish orqali davlat tomonidan asosiy irrigatsiya infratuzilmasi tiklanadi. Xususiy sektor tomonidan tomchilatib sug‘orish, drenaj tizimlari va texnik xizmat ko‘rsatish tashkil etiladi. Loyihaga kiruvchi fermerlarga soliq imtiyozlari, davlatdan grant va subsidiyalar ajratiladi. Infratuzilmadan foydalanish uchun tender asosida xususiy sherik tanlanadi.**

Xulosa

[2] Muallif ishlanmasi

Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yerlarini boshqarish va ulardan foydalanish tizimini shakllantirish va bu borada hududiy dasturlarni ishlab chiqish va tatbiq etish, ularda bozor kon’yukturasi talabiga mos qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish buyurtmalarini samarali joylashtirish, moddiy-texnika, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishni zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari asosida tashkil qilish va pirovardida bu boradagi innovatsion g’oya va tashabbuslarni tegishli davlat va xo‘jalik boshqaruvi idoralari bilan ko‘rib chiqish, yerdan foydalanishning yangi tizimi sifatida fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari ishtirokidagi agroklasterlar faoliyatini takomillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations https://www.un.org/en/desa/world-population-projected-reach-98-billion-2050-and-112-billion-2100.
2. N.N.Safiyeva.“Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilishni takomillashtirish”:Dissertatsiya-G/2025-149b.
3. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 914-sonli qarori 30.12.2024y.
4. www.cer.uz
5. https://www.fao.org/statistics/highlights-archive/highlights-detail/land-statistics-2001-2022.-global--regional-and-country-trends/en
6. A.S.Altiyev,“Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari”:Monografiya-Toshkent 2018-234b
7. Usmanov Yu.A. “Degradadsiyaga uchragan sug’oriladigan yerlarni tiklash va foydalanishga kiritish mexanizmlarini takomillashtirish”:Monografiya-T. 2024-156 b.